



## 2022- yilning yanvar-iyun oylarida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlari



**2 679,9**  
mlrd. so‘m

**108,1 %**

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida  
Navoiy viloyatida jami **2 679,9** mlrd.so‘mlik  
qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati  
2021- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan  
**108,1 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish  
tashkilotlari, kichik korxona va  
mikrofirmalar hamda norasmiy  
sektorlarda amalga oshirilgan ishlar  
tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi




Amalga oshirilgan qurilish  
ishhlari mulkchilik shakli, davlat  
va nodavlat bo‘lgan korxona  
va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha  
bo‘linadi.

**Ma’lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan  
qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hamda boshqa pudrat  
qurilish ishlari natijasidir.



### Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, 2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 1 753 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 129 taga oshdi.



Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlaringin o'tgan yilga nisbatan 116,7 % ga (jami qurilishdagi ulushi 53,7 %), fuqarolik obyektlarini qurish 135,3 % ga (jami qurilishdagi ulushi 8,9 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlaringin 93,3 % ga (jami qurilishdagi ulushi 37,4 %) o'sishidir.




**Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari  
soni (birlikda)**

		Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.07.2021- yil	01.07.2022- yil	
	Navoiy viloyati	1624	1753	107,9
	Navoiy sh.	475	490	103,2
	Zarafshon sh.	133	159	119,5
	G`ozg`on sh.	-	7	-
	<i>tumanlar:</i>			
	Karmana	270	301	111,5
	Konimex	36	42	116,6
	Qiziltepa	233	257	110,3
	Navbahor	188	186	98,9
	Nurota	105	122	116,2
	Tomdi	40	41	87,8
	Uchquduq	49	43	87,8
	Xatirchi	95	105	110,5




### Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni, 2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra (ulushi, % da)



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalarini Navoiy shahri (28,0 %), Karmana (17,2 %) va Qiziltepa (14,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **530,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **100,7 %** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **19,8 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida yirik qurilish tashkilotlari  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringning jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Navoiy shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 28,0 % ni), Qiziltepa tumaniga (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 28,9 % ni) va Zarafshon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 23,3 % ga) to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning yanvar-iyun oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 55,3 % ga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-iyun oylari ko'rsatkichiga nisbatan 0,5 punktni tashkil etdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 110,9 % ni tashkil etgan holda 1 482,3 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **24,9** % ni tashkil etdi yoki **666,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **108,8** % ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 241,3 mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 2 438,6 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 8,5 % va 91,5 % ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan  
bajarilgan qurilish ishlari**





**2022- yilning yanvar-iyun oylarida  
hududlar kesimida mulkchilik shakllari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Nodavlat mulki		Davlat mulki	
		mlrd. so'm	Ulushi, % da	mlrd. so'm	Ulushi, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>2 679,9</b>	<b>2 438,6</b>	<b>100,0</b>	<b>241,3</b>	<b>100,0</b>
Navoiy sh.	655,0	541,9	22,2	113,1	46,9
Zarafshon sh.	414,5	308,8	12,7	105,7	43,8
G`ozg`on sh.	16,5	16,5	0,7	-	-
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	273,3	270,5	11,1	2,8	1,2
Konimex	34,6	33,3	1,4	1,3	0,5
Qiziltepa	507,1	505,3	20,7	1,7	0,7
Navbahor	225,7	223,2	9,2	2,5	1,0
Nurota	221,8	219,8	9,0	2,0	0,8
Tomdi	55,2	53,8	2,2	1,4	0,6
Uchquduq	58,3	57,2	2,3	1,1	0,5
Xatirchi	217,9	208,2	8,5	9,7	4,0

**\* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan**

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik  
qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2022- yil yanvar-iyun oylarida

Bajarilgan qurilish ishlaring katta qismi bino va inshootlarni  
qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaring 75,6 % ni yoki  
**2 026,9** mld. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi  
ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy  
obyektlarni yaratishga qaratilgan.



75,6%

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **530,7** mld. so‘mlik  
ishlar bajarildi yoki jami yangi qurilish ishlaridagi ulushi  
19,8 % ni tashkil etdi.



19,8 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha  
yangi qurilish hisobidan **1 482,3** mld. so‘m  
yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning  
yangi qurilish ishlaridagi ulushi 55,3 % ni  
tashkil etdi.



55,3 %

Qurilish ishlari hajmida norasmiy  
sektor hissasi **666,9** mld. so‘m  
yoki ularning jami yangi qurilish  
ishlaridagi ulushi 24,9 % ni tashkil  
etdi.




24,9 %



**2022- yilning yanvar-iyun oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur’ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish (mlrd. so‘m)
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>2 679,9</b>	<b>108,1</b>	<b>1 973,9</b>
Navoiy sh.	655,0	102,5	494,6
Zarafshon sh.	414,5	95,0	361,2
G`ozg`on sh.	16,5	2077,5	16,5
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	273,3	103,0	201,3
Konimex	34,6	128,9	21,7
Qiziltepa	507,1	132,0	400,7
Navbahor	225,7	104,3	134,2
Nurota	221,8	100,7	110,5
Tomdi	55,2	155,1	19,9
Uchquduq	58,3	129,2	29,6
Xatirchi	217,9	105,4	183,6

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
qurilish ishlari



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringning asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **18,9 %** ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **12,4** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **10,2** punktga ko'payib, **63,3 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2021- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,2** punktga ko'paydi, **17,8 %** ni tashkil etdi.






## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **21,5 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **1,3 %** ga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **78,8 % (1,3 % ko'payish)** ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **6,3 %** ga kamaydi va **40,1 %** ni tashkil etdi. Qolgan **59,9 %** ni kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **6,3 %** ga ko'paydi.

*ulushi, % da*





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar  
kesimida qurilish ishlari  
2022- yil yanvar-iyun oylarida**

*mIrd. so'm*


	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslash- tirilgan qurilish ishlari
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>2 679,9</b>	<b>2 026,9</b>	<b>520,4</b>	<b>132,5</b>
Navoiy sh.	655,0	505,6	131,5	18,0
Zarafshon sh.	414,5	271,9	127,0	15,7
G'ozg'on sh.	16,5	10,8	2,3	3,4
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	273,3	234,1	29,6	9,6
Konimex	34,6	24,8	6,8	3,0
Qiziltepa	507,1	452,1	39,3	15,7
Navbahor	225,7	155,6	48,6	21,5
Nurota	221,8	158,6	43,3	19,9
Tomdi	55,2	28,0	22,6	4,5
Uchquduq	58,3	34,8	17,6	5,9
Xatirchi	217,9	150,7	51,8	15,5

\*Hududlar bo'yicha taqsimlaniyundigan hajmni qo'shgan holda




**Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari**

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishining ulushi, % da



Bino va inshootlar qurilishining jami qurilish ishlariiga nisbati, % da




2022- yil  
yanvar-iyun

Navoiy viloyatida qurilish ishlari


Joriy yilning yanvar-iyun oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiylajmida eng yuqori ulush Qiziltepa tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 89,2 % ni yoki **452,1** mlrd. so'm), shuningdek, Karmana tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 85,7 % ni yoki **234,1** mlrd. so'm), Navoiy shahar (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 77,2 % ni yoki **505,6** mlrd. so'm) qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Tomdi tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmidan 41,0 % ni yoki **22,6** mlrd. so'm), Zarafshon shahar (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 30,6 % ni yoki **127,0** mlrd. so'm), Uchquduq tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 30,1 % ni yoki **17,6** mlrd. so'm) qayd etildi.

**Fuqarolik obyektlari qurilishining  
jami qurilish ishlariga nisbati, % da**



**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining  
jami qurilish ishlariga nisbati, % da**



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush G'ozg'on shahar (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 20,5 % ni yoki **3,4** mlrd. so'm), Uchquduq tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 10,2 % ni yoki **5,9** mlrd. so'm), Navbahor tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 9,5 % ni yoki **21,5** mlrd. so'm) qayd etildi.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

(mlrd. so'mda)

**Navoiy sh.**  
**655,0**

**Qiziltepa t.**  
**507,1**

**Zarafshon sh.**  
**414,5**

**Karmana t.**  
**273,3**

**Ma'lumot uchun:** Qurilish ishlaringning eng yuqori hajm ko'rsatkichi Navoiy shahri (655,0 mlrd.so'm), Qiziltepa tumanida (507,1 mlrd.so'm), Zarafshon shahri (414,5 mlrd.so'm), Karmana (273,3 mlrd.so'm) tumaniga to'g'ri keldi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Tel.: (71) 202-85-20;  
(79) 223-54-73